

FARG’ONA VODIYSI JADIDLARI: FAOLIYATI, TARIXI, QARASHLARI.

Muhammadmusayeva Mahliyo*Guliston davlat pedagogika instituti tarix yo‘nalishi talabasi.*

“Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo‘qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko‘rsatib bergan yo‘ldan og‘ishmay borishi kerak. Chunki ularning g‘oya va dasturlari Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir”, — Shavkat Mirziyoyev

Annotatsiya: Mazkur maqolada yurtimizning Farg‘ona vodiysida faoliyat olib borgan jadidlar, ularning tarixi va faoliyati, ijodlari va avlodlarga qoldirgan meroslari, ularning qarashlari haqida so‘z boradi. Yurtimiz tarixida ularning o‘rni juda ham ahamiyatli bo‘lgani uchun ularni o‘rganishga e‘tibor beriladi.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona vodiysi, sovet hukumati, Vatan, millat, jadidchilik, ma’naviyat, marifat, madaniyat, ijtimoiy siyosat, yangi usul maktablari, Maorif maktabi, ijodkor, harakat, Muqumiy, Furqat, Xamza, Ishoqxon Ibrat, Cho‘lpon.

Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha: **جديد** **jadīd** — yangi) – XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat. Jadidchilik dastlab, XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O‘rta Osiyoda tarqaldi, Turkiston hududida ilk jadidchilik harakatlari boshlandi, Farg‘ona vodiysi esa jadidchilik alanga olgan o‘choqlardan biri edi. Bundan 135-140 yillar oldin turli xil xalqimiz ichidagi ziyolilar insonlarning madaniy-manaviy hayotini rivojlantirishga e‘tibor qaratishgan bularga misol qilib biz Muqumiy, Furqat, Xamza, Ishoqxon Ibrat Cho‘lpon kabi buyuk insonlarni misol qilib keltiramiz. Xech kimga sir emaski bu kishilar yuqori aqliy salohiyat egalari bo‘lishgan va ularning qarashlarida ozodlik uchun ma’naviy kurash yotadi. Shubhasiz, Farg‘ona vodiysi yirik jadidchilik markazi bu fikrimizga misol qilib aynan Markaziy Osiyodagi 2- jadidchilik maktabi Qo‘qonda 1898-yil Salohiddin domla tomonidan asos solingani haqidagi fakti keltira olishimiz mumkin. 1899-yili shunday maktab Andijonda ochiladi, 1903-yilga kelib 30ga yaqin jadid maktablari aynan Farg‘ona vodiysida mavjud edi. Bu esa jadidlarimizning ulkan xizmatlari nishonasi xisoblanadi. Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka „burjua-liberal, millatchilik harakati“ deb ta’rif berilgan. Bu davrda asosan tanqid qilingan jadidchilik namoyandalari nomi SSR parchalanib ketganidan keyin qayta tiklandi. Turkiston jadidlari bilan Buxoro va Xiva jadidlari o‘rtasida bir muncha tafovut bor. Turkiston o‘lkasidagi jadidchilikning ijtimoiy asosini ziyolilar tashkil qildi. Ular Chor Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, chorizmning xomashyo manbaiga aylantirilgan Turkistonning dastlab muxtor, so‘ng mustaqil davlat bo‘lishini yoqlab chiqdilar.

Xar bir jadidning o‘ziga xos yo‘nalishi va dunyo qarashlari bo‘lgan va bu qarashlar ilmsizlikka qarshi kurashish ostida birlashgan bu fikrlarni chuqurroq o‘rganish uchun ularning qisqa tarjimai xollariga qarab o‘tamiz.

Muqumiy – buyuk jadid Muqumiy 1850-yilda Qo‘qonda tavvalud topadi. Avvaliga o‘zining mahallasidagi madrasada keyinchalik Buxoroda ta‘lim oladi u Buxoro, Toshkentga sayohat qiladi va o‘lka ahvolini o‘rganadi, uning asarlari asosan hajviy-satirik tarzda yozilgan o‘lkadagi insonlarning og‘ir ahvoli, laganbardorlik, poraxo‘rlik, uquvsizlikka qarshi yozilgan achchiq kulgudan iborat satrlarga to‘la bo‘lgan. Uning birgina “Tanobchilar” nomli asaridan o‘lkadagi amaldorlarning qanchalik chirkin ishlar qilishini ko‘rsatib beradi. Shu bilan birga uning “Sayohatnoma” kitobi Turkiston, Buxorodagi ichki muammolardan so‘zlovchi katta bir qo‘llanma xisoblanadi. Ot, arava, loy, pashsha, bezgak kabi mavzularda 30 ga yaqin hajviy asar yaratgan. Ularda shoir turmushning qoloq va chirkin tomonlari, ijtimoiy ongda nuqsonlar ustidan kulgan, mustamlakachilik azobi, harobalikni zaharxandalik bilan tasvirlagan („Devonamen“, „Ko‘samən“ „Hayron qildi loy“, „Pash-shalar“, „Shikoyati bezak“ va boshqalar). Boshqa bir qator hajviyalarida jamiyat hayotidagi o‘zgarishlarga yangicha munosabat aks etgan („Ta‘rifi pech“, „Aroba qursin“, „Loy“ va boshqalar). Muqumiy o‘zbek demokratik adabiyoti asoschisi ham hisoblanadi. Bu buyuk inson afsuski jadidchilikning boshlang‘ich yillarida vafot etadi.

Furqat – asl ism sharifi Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li, 1859-yilda ijodkor oilasida tug‘ilgan bu arbob, elshunos va xattot hamdir. U jadidchilik harakatining otalaridan biri hisoblanib, turli xil mavzularda kichik asarlar yozgan, shoirlik qilgan. Furqat she‘riyatida mustamlaka tuzumining illatlarini qoralash, joriy adolatsizlik va zo‘ravonlikdan, huquqsizlik va nochor hayotdan, nodonlarning zamonada e‘tibor topib, donolarning xor-zor etilishidan norozilik esda qolarli badiiy bo‘yoqlarda tasvirlangan. Furqat ilk bor gazeta bilan tanishganda Marg‘ilonda edi. U bosmoxonani ko‘rish maqsadida Toshkentga ko‘chib o‘tadi. Furqat Toshkentda rus ziyolilari, yevropacha hayot tarzi bilan tanishdi. Chor ma‘murlari shoirning teatr, gimnaziya, turli konsertlarga kiritishni uyushtirdilar, ko‘rgazmalarga olib bordilar. Yangi tarixiy sharoit tufayli yuz bergan o‘zgarishlarni mushohada etish natijasida Furqat dunyoqarashida jiddiy o‘zgarish bo‘ladi va bu hol uning ijodida o‘z badiiy ifodasini topadi — ma‘rifatparvarlik, yevropacha ilm-madaniyat, fan-texnika xayrixohlik shoir she‘rlarining yetakchi g‘oyasiga aylana boradi. Bu esa Furqatning ko‘p asrli o‘zbek adabiyotiga yangi mavzular, yangi g‘oyalar olib kirishiga zamin bo‘ldi. Toshkentda ochilgan erlar gimnaziyasi, maorif muassasalari, madaniyat va san‘at o‘choqlarini, tobora ko‘proq kirib kelayotgan fan-texnika yangiliklarini kuzatish oqibatida uning „Ilm xosiyati“, „Gimnaziya“, „Vistavka xususida“, „Akt majlisi xususida“, „Toshkent shahrida bo‘lg‘on nag‘ma bazmi xususida“, „Suvorov“ va boshqa asarlari maydonga keldi va ularning barchasi 1890-yillarda Turkiston viloyatining gazetasida chop qilindi. Keyinchalik gazetada ham ishlaydi. Furqatning yana bir ajabtovur ishlaridan biri uning sayohatlaridir. U o‘sha davrda Yunonistongacha borgan sanoqli mutaffakirlarimizdan biri xisoblanadi. Afsuski u o‘z uyidan uzoqda hozirgi Yorkentda vafot etadi. U bizning tariximizda yorqin publist, shoir va elshunos sifatida qoladi.

Hamza – Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889-yilda Farg‘onada tug‘iladi, qisqa umri davomida u el orasida ajoyib adib sifatida taniladi. Keyinchalik uni xatto O‘zbekiston SSR xalq youzuvchisi ham deb topishadi. Jamoat arbobi sifatida u xalq uchun manfaatli ishlar qilishga bel bog‘laydi, avvaliga o‘z mahallasida, keyinchalik Qo‘qonning boshqa mahallaridan birida jadidchilik maktabini, 1914-yila esa Marg‘ilonda jadidchilik maktabini ochadi. Hamza shu bilan birga o‘zbek zamonaviy musiqa san‘atining asoschisi va teatrshunos sifatida eslanadi. Hamzaning inqilob yillaridan oldingi asosiy asari tojik va o‘zbek tillarida yozilgan she‘riy „Devon“ (1905–1914) asari vafot etganidan so‘ng nashr qilingan. Hamza ushbu asarni ham „Nihoniy“ taxallusi bilan yozgan. Asarga jami 214 ta she‘r kiritilgan. „Devon“ning ba‘zi g‘azallarida sharq she‘riyatga xos muhabbat, diniy tematika orqali ma‘rifatga chaqirish kabi mavzular o‘rin egallaydi. Hamzaning ilk nashrdan chiqqan asarlarida ham ushbu mavzular ko‘tarilgan: „Ramazon“ (1914), „Yangi baxt“ dostoni (1915), „Zaharlangan hayot“ (1916). Niyoziyning dastlabki asarlarida kuchli sotsial-demokratik yo‘nalishlar va ijtimoiy adolatsizlik keskin qoralangan. Uning asarlarida asosan ayollar huquqlari, ijtimoiy tengsizlik va xurofotning keng tarqalishi kabi istak ijtimoiy masalalari yoritilgan. Hamzaning o‘zbek dramaturgiyasida muayyan iz qoldirgan asari „Maysaraning ishi“ komediyasi va „Paranji sirlaridan bir lavha yoki Yallachilar ishi“ dramasi hisoblanadi. Afsuski, u 1929-yilda Shohimardonda vafot etadi. O‘limidan so‘ng uning ko‘p ishlari yo‘qolib ketdi. Yillar davomida uning to‘plangan asarlari sirli tarzda yo‘qolib ketadi. Hamzaning hayoti juda ham qizg‘in bo‘lib, u teatr bilan shug‘ullangan davridayoq unga qarshi toshlar otila boshlangan. Shunga qaramay adib ajoyib pyesalar yaratdi va ularning ko‘pi xozirda ham ijro etiladi.

Is‘hoqxon Ibrat (1862-1937) — ma‘rifatparvar shoir, zabardast tilshunos, tarixshunos olim, ilk o‘zbek matbuotchilaridan bo‘lib, 1862-yilda Namanganganda tavvalud topadi. Avvaliga u Qo‘qondagi madrasada o‘qiydi, keyinchalik esa Namanganga qaytib kelib tarjimonlik, muallimlik qilgan, shu bilan birga kitoblar yozgan. Ibrat arab, fors, hind, turk, o‘zbek va rus so‘zlaridan tarkib topgan „Lug‘at sitta as-sina“ („Olti tilli lug‘at“, 1901) tuzgan, bu asar o‘sha davr uchun juda ham kerakli edi. Bu lug‘at minglab so‘zlarni o‘z ichiga oladi. Is‘hoqxon Ibrat 1887-yilda haj safariga otlanadi. So‘ng u Sharq mamlakatlari bo‘ylab sayohatni davom ettiradi. Yevropaning Istanbul, Sofiya, Afina, Rim kabi markaziy shaharlarida bo‘ldi, ancha vaqt Jidda shahrida istiqomat qiladi, Bombay va Kalkuttada yashaydi. Is‘hoqxon u yerlarda ko‘p ishlatiladigan arab, fors, hind va ingliz tillarini mukammal o‘rgandi. U 1896-yilda o‘z vataniga qaytib keldi. 1901-yilda „Lug‘ati sitta as-sina“ asarini bosmadan chiqaradi. Mazkur lug‘at jadid maktablarida sharq va rus tillarini o‘rganishda birdan bir qo‘llanma sifatida foydalanib kelindi. Is‘hoqxon Ibrat zamonaviy blimlarning faol targ‘ibotchisi bo‘lgan. U 1908-yilda o‘z qishlog‘i To‘raqo‘rg‘onda bosmaxona ochishga ruxsat oladi. Ushbu bosmaxonada tipografiya va litografiya uskunalari bo‘lgan va ular orqali arab, rus, lotin va ibroniy yozuvlari orqali matn yozish imkoni bo‘lgan. Is‘hoqxon Ibrat 1912-yilda yozuvlar tarixiga bag‘ishlangan „Jome‘ ul-xutut“ yozuvlar tarixiga oid muhim manba asarini yaratdi va o‘z matbaasi „Matbaayi Is‘hoqiya“da bosmadan chiqardi. Ibrat chin qalbdan o‘z xalqining ilmi, ma‘rifatli bo‘lishini istadi. U

keyingi 20 yil ichida 14 ta ilmiy, tarixiy, lingvistik asar yozdi. 30 yillik poetik ijodining majmuyi bo‘lmish „Devoni Ibrat“ she‘rlar to‘plamini tuzdi. Ibrat tarixshunoslikka oid „Tarixi Farg‘ona“, „Tarixi madaniyat“ va „Mezon uz-zamon“ ilmiy asarlarini yaratdi. U 1937-yilda esa qo‘lga olinib, aynan shu yili Andijon tumanida vafot etadi.

Cho‘lpon – asl ism sharifi Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Yunusov, 1897-yilda Andijonda tug‘iladi. Shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon, tanqidchi va jamoat arbobi. Dastlab, madrasada (1908-1912), so‘ngra rus-tuzem maktabida (1912-1914) o‘qigan. Sharq mumtoz shoirlari asarlarini mutolaa qilish va jadid matbuotini kuzatish yo‘li bilan adabiy, ijtimoiy-siyosiy bilimni oshirgan. Cho‘lpon 1914-yilda Toshkentga kelaid va 7 yil davomda turli xil gazetalarda ishlaydi. O‘zbekiston drama studiyasinni boshqaradi keyinchalik Buxrorda gazetada bosh muharri va O‘zbekiston SSR markaziy nashriyotida ishlaydi. SHu davrda u ijod bilan shug‘ullanib, xalq orasida keng tanila boshlaydi. Ibrat ijodini Toshkentga kelishidan oldin, aynan Andijonda boshlaydi va turli katta-kichik hikoyalar yozadi. Cho‘lpon „Sadoi Turkiston“ gazetasida dastlabki „Turkistonli qardoshlarimizga“ she‘ri, „Qurboni jaholat“, „Do‘xtir Muhammadyor“ hikoyalari va „Adabiyot nadir?“, "Muhtaram Yozg‘uvchilarimizga" maqolalarini e‘lon qiladi. 1917-yil Fevral inqilobining ro‘y berishi, taraqqiyparvar ziyolilar dunyoqarashini o‘zgartirib yubordi. Ular, shu jumladan, Cho‘lpon mustaqillik uchun kurash endi targ‘ibiy-tashviqiy davridan amaliy faoliyat bosqichiga o‘tganini angladilar. Cho‘lpon Turkiston muxtoriyati hukumatining barpo etilishida faol ishtirok etib, muxtoriyatni sharafllovchi „Ozod turk bayrami“ she‘rini yozdi va bu she‘r o‘zbek davlatchiligi tarixida ilk madhiya bo‘ldi. Shu davrda Turkistondagi ko‘p millatli ziyolilar o‘rtasida federalizm g‘oyasi keng tarqalgani sababli Cho‘lpon ayni paytda Z.Validiy bilan birga Orenburgga borib, Boshqirdiston muxtoriyat hukumatining tashkil etilishida ham ishtirok etdi. Federalistlarning fikrlariga ko‘ra, Turkiston va Volga bo‘yidagi turkiy xalqlar o‘z muxtoriyat hukumatlarini barpo etganlaridagina bu hukumatlarning bolsheviklar tomonidan tan olinishi va birgalikda himoyalaniishi mumkin edi.

Muxtoriyat tugatilgach, Cho‘lpon „Ilmiy kengash“, „Chig‘atoy gurungi“, „Nashri maorif“ tashkilotlari va „Turon“ teatrda adabiy, ilmiy-ma‘rifiy ishlar bilan mashg‘ul bo‘ldi. Ayni paytda sho‘ro davlatining mustamlakachilik siyosati oqibatlarini fosh etuvchi she‘r va maqolalar yozish bilan istiqlool uchun kurashda davom etdi. Ammo respublika madaniyat xodimlarining 2-qurultoyi 1927-yildan keyin Cho‘lponga qarshi boshlangan kurash uni siyosiy faoliyatdan uzoqlashishga, hatto 1931-1935-yillarda Moskvaga qochib borib, musofirlikda yashashga majbur etdi. U keyinchalik qo‘lga olindi va mashum 1937 yil 4-oktyabrda Toshkentda otib o‘ldirildi. Uning marifatparvarlik ishlari keyinchalik qisman yo‘q qilinndi va bazi qismlari asrab qolinib xozirgacha yetib kelmoqda.

Jadidlarning zamona xaqidagi fikrlari bir-biriga o‘xshash ammo ma‘lum bir sohalarda farqli hamdir ular deyarli barcha sohada ilg‘orlardan edi va ularning fikrlari doimo ajoyib talqinlarni keltirib chiqaradi. Muqumiy o‘z asarlarida satiradan foydalangan bo‘lsa „Men kimki xarakatim o‘zgartirar jahonni birdam, kutmoqni aylayman o‘zimga yordam“. Bunda u xar bir inson o‘zini keraksiz deb tutayotganiga va qabihliklardan qochish uchun hech nima qilmayotganligini ko‘rsatadi. Insonlar o‘zini qul qilayotgan odamlarga qarshi turmay,

qabihlarni yengmay hammasi o'tib ketadi degan fikrni quyib olganiga qarshi chiqmoqda. Bunday misralar uning ijodida juda ham ko'p uchraydi. Furqat esa "Kishi holimni bilmas" she'rida shunday to'rtlikni keltiradi:

Kishi holimni bilmas, mehribonidin adashganman,
Vatan ovoradurmen, do'stonidin adashganman,
Vatansiz benavodurmen, makonidin adashganman,
G'aribi ko'yi g'urbat, xonumonidin adashganman.

Bunnda shoir Vatanidan uzoqda va uni qanchalik sog'ingaligini ko'rsatmoqda, u yerda qiyinchiliklar, g'am tugamagan bo'lsa baribir unga talpinishini bildirmoqda. Hamza esa doimo insonlarni uyg'otishga va ularni ilm olishga chaqiradi turli xil ilmli kishilar bilan birgalikda targ'ibot ishlarini ham olib boradi. Uning fikrlari doimo keskin va juda ham chuqur edi. U insonlarni qanday ahvolga kelganidan bexabar, loqaydligini ustidan fikrlar yozadi buni uning bu sherida ham ko'rishimiz mumkin.

HEY AHLI VATAN...

Ey ahli vatan! Bosdi sani muncha g'afolat,
Garq ailadi muncha sani daryoi jaholat,
Tyshidi sani boshing uzra shum zallayu razolat,
Xudo! Holingga nalar bula? Gar bulsa basorat?
Koplab kelur millatingni zulmatu gorat,
Inson sifating vor esa tur! Ayla jasorat!

Bu misralarda u Vatanida insonlardan uyg'onishini so'ramoqda. G'aflatda qolgan xalqdan jaholatdan chiqib, ma'rifatga o'tishni so'ramoqda, razolat va shumdan qochishni, yomon xolidan asrashni, jasorat aylab xayotga tik boqishni so'ramoqda. Hamza o'sha davridayoq siyosat bilan shug'ullangan va ayollarni huquqlarini ximoya qilib chiqqan kamyob insonlardan xisoblanadi. U maktablarni kelajak deb bilib insonlar ma'rifiy rivoji uchun ularni kerak deb bildi, ayollarni ham jamiyatda o'rni yirk ekanligini bildirib, ularni ximoya qilish uchun turli ocherklar va pyessalar yozdi. Ibrat esa sayyohatchi sifatida juda ham ko'p yurtlarda bo'lgan, asli tarjimon inson, xalqlarning orasida ko'p bo'lgan va turkistonliklar haqida ko'plab ma'lumotlarni beradi. Aslida u yurt dardida yonib-kuygan ularni ma'rifatga chorlagan. U yurtidagi dardlarni yopiq misralar bilan aks ettirgan:

O'shal bulbul qilar afg'on, sahar vaqti chaman ichra,
Qo'nar gul deb tikan uzra, sahar vaqti chaman ichra.
Qilar bag'rini bulbul qon, tikan uzra beray deb jon,
Bo'lur gul zavqidin qurbon, sahar vaqti chaman ichra.

Bu she'rlar sovet hukumatining qilgan noto'g'ri qamash va o'ldirishlarini qisman ochib beradi, bu yerda bulbul aslida tinch aholi va uning boshida doimo g'avg'o shunday bo'lsada ular yashash uchun kurashmoqda, tevaragida ularni ezayotgan hukumatga qarshi xech narsa qilolmay ahvol kundan-kun og'irlashayotganini ko'rishimiz mumkin xisoblanadi. Ibrat o'zining ishlarida xalqi uchun kuyib yongan jafokash xisoblanadi, bu uning qilgan ishlarida, bosmaxona ochganidan va kitoblar chiqarganidan ko'rishimiz mumkin. Cho'lpon esa xalq dardini melanholik asarlari bilan yorituvchi inson. U nashriyotda turli xil asarlari uchun,

she'rlari uchun doimo yoqtirilmagan, uning tragedik xayoti doimo xalq bilan xamnafas bo'lish bilan o'tdi. Ularni ma'rifatga chorladi. U xalqimizning materializmga o'chligiga qarshi kurashdi va harakat qildi. Buni uning bu so'zlaridan bilsak ham bo'ladi:

Maktabga yo'q bir tiyinni to'yga ming so'mlab berur,

Chorasi yo'q dardga muhtalodir bizning xalq.

Darxaqiqat o'tmishda ham, bugun ham shunday insonlar to'y va boshqa mashg'ulotlarga ko'plab miqdorda pullar sarflaydi, ammo maktab qurushga kelganda esa bunday emas, insonlar qochadi, bir kunlik to'y uchun pullar daryodek oqadi, ammo yillar turadigan ilm markazini qurulishiga kelganda xech kimdan sado chiqmaydi. Bu esa albatta juda yomon xolat. XX asrning boshlaridagi bunday xol xozirgidan ham og'irroq edi. Cho'lpon o'sha davrdayoq ilmga sarflangan pul millatni qutaqrishiga ishongan va insonlar "mubtalo bo'lgan dard"ga qarshi kurashishga o'z fikrlarin bilan qarshi kurashdi.

Mustaqillik yillarida endilikda bu jadidlarning nomini abadiylashtirish maqsadida katta loyihalar amalga oshirilmoqda, kitoblar yozildi, mahalla va ko'cha nomlari ularning sharafiga nomlandi, haykallar o'rnatildi, ularga qo'yilgan ayblovlar olib tashlandi. Ularning yubileylari keng nishonlandi: Cho'lponning 100 yiligi 1997-yilda nishonlangan bo'lsa, Hamzaning 100 yiligi 1999-yilda tantanali o'tkizildi, 2000-yili Muqumiyning 150 yilligi nishonlandi, 2024-yil esa Ibratning 130-yiligi o'zi ulg'aygan shahrida tantanal bo'ldi. Shu bilan birga ularning nomiga maktablar, teatrlar nomlandi. Bu o'z navbatida juda ham katta yutuq xisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Allworth, Edward. Central Asia, 130 Years of Russian Dominance. Duke University Press, 1994.
2. Allworth, Edward. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present: A Cultural History. Hoover Institution Press, 1990.
3. Allworth, Edward. Uzbek Literary Politics. Mouton & Co., 1964. .
4. Kamp, Marianne. The New Women in Uzbekistan. Islam, Modernity, and Unveiling under Communism. University of Washington Press, 2006.
5. Cho'lponning badiiy olami, T., 1993; Sharafiddinov O., Cho'lponni anglash, T., 1994;
6. Sharafiddinov O., Cho'lpon, T., 1991; Karimov N., Cho'lpon, Toshkent, 1991;
7. Yoqubov H., O'zbek demokrat shoiri Muqimiy, T., 1953;
8. Yusupov Sh. O'zbek ma'rifatarvarlik adabiyoti va Furqat. T., 1992.
9. Tuychiboev, B. B. (2021). THE ERA OF INITIAL IRON AGE MATERIAL CULTURE IN THE MID-SYRDARYA. *Bulletin of Gulistan State University*, 2021(2), 79-86.
10. Yuldashov, A., Tuychiboev, B., & Djoraev, A. (2024). AGRO-ECOLOGICAL CONDITION OF SIRDARYA REGION AND THE WAYS TO IMPROVE IT. *Science and innovation*, 3(C3), 5-10.

11.Тўйчибоев, Б. Б. (2024). ОТ ТИМСОЛИГА ТОПИНИШНИНГ АСТРАЛ-ЗОДИАКАЛ АСПЕКТДА НАМОЁН БЎЛИШИ ВА ДИНИЙ-МИФОЛОГИК ҒОЯЛАРИ МОҲИЯТИ ХУСУСИДА. *Science and innovation*, 3(Special Issue 6), 124-129.

12.Туйчибоев , Б. (2022). Қоятош суратларини ўрганиш ва сақлашда рақамли технологияларнинг ўрни. *Значение цифровых технологий в изучении истории Узбекистана*, 1(01), 19–24. <https://doi.org/10.47689/v1i01.13306>

13.То‘uchiboev, В. В. (2024). MUZEY-QO ‘RIQXONALAR KOMPLEKSI-ZAMONAVIY MUZEYLAR SIFATIDA (PETROGLIF YODGORLIK-LAR MISOLIDA). *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 4(3), 88-92.